


Ma'lumotlarni qayta ishlash



Sinfda necha nafar o'quvchi muzqaymoqni yoqtirishini qanday aniqlash mumkin? Buning uchun nima qilish kerak? Buni aniqlash uchun qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?

O'quvchilar guruhiga oid umumiy axborotni olish uchun so'rovnoma o'tkaziladi. Hamma o'quvchiga bir xil savol beriladi, keyin javoblar yig'iladi va qayta ishlanadi: qo'shiladi, ko'paytiriladi yoki shunchaki necha xil javob chiqqani sanaladi.

Masalan, sinfda necha nafar o'quvchi muzqaymoqni yoqtirishini bilish uchun quyidagilarni bajarish kerak bo'ladi:

- har bir o'quvchidan muzqaymoqni yoqtirish yoki yoqtirmasligi so'raladi;
- **ha** yoki **yo'q** javoblaridan biri yozib qo'yiladi;
- **ha** deb javob bergan o'quvchilar soni sanaladi.



1. So'rovnoma o'tkazing va sinfingizda necha nafar o'quvchi muzqaymoqni yoqtirishi haqida xulosa chiqaring.

Statistika – turli ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, o'rganish, sanash va ulardan kerakli axborotni olishga yordam beradigan fan. Yig'ilgan ma'lumotlar **statistik ma'lumotlar** deb ataladi.





2. O'qituvchi sinfda haftaning **eng yaxshi o'quvchisini** tanlashni taklif qildi. Bolalarning ovozlari qanday taqsimlanganini o'rganing. Ko'pchilik kimga ovoz bergan?

Madina**Akmal****Jasur**

3. Azizaning onasi **Tabiat muzeyiga** ekskursiyaga borishni xohlaydigan o'quvchilar ro'yxatini tuzmoqda. O'quvchilar bilan birga ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar yoki boshqa qarindoshlar ham borishi mumkin. Umumiy boruvchilar sonini hisoblash uchun u bolalarga qanday savollar berishi kerak?



4. Sinfda so'rovnoma o'tkazing va quyidagilarni aniqlang:

- necha nafar bola musiqa maktabiga qatnashini;
- sinfda necha nafar sportchi borligini;
- sinfdagi bolalarning aksariyati necha yoshda ekanligini;
- sinfdagi eng bo'yi baland o'quvchi kimligini;
- maktabdagi to'garaklarning qaysi biri eng qiziqarli ekanligini.

Bularni bilish uchun sinfdoshlaringizga qanday savollar berishingizga to'g'ri keldi?



5. Qanday hollarda **statistik so'rovnoma** bolalarga o'z savollariga javob berishda yordam berishini o'ylab ko'ring. Bolalar kimga va qanday savollarni berishlari kerak?



Men har bir o'qituvchiga yondaftar sovg'a qilmoqchiman. Qanday rangdagi yondaftarlardan xarid qilishim kerak?

Men hayvonlar haqida quvnoq va xayrli hikoya yozmoqchiman. Qanday sujetni tanlaganim ma'qul?



Men singlimga quloqchin sovg'a qilmoqchiman. Qanday modelni tanlaganim ma'qul? Buning uchun qancha pul to'lashimga to'g'ri keladi?



6. Savollarga javob bering.

- **Statistika** bizga kundalik ishlarimizda qanday yordam beradi?
- Sinfingizdagi bolalardan qaysilari dasturlash bilan shug'ullanishini aniqlash uchun ularga qanday savollar berish kerak?

